

IRSIY JARAYON FE’LLARINING SINONIMIYASI

Xoliqova Munojot Jo‘rabekovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

gumanitar fanlar fakulteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-kurs magisrtanti

Ilmiy rahbar: f.f.d.poff. **R.Rasulov.**

Annotatsiya: Ushbu maqola sinonim so‘zlar , sinonimik qator, ularning qo‘llanishi, irsiy jarayon fe’llarining sinonimiyasi haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Sinonimlar, sinonimik qator, sinonimlarning qo‘llanishi, irsiy jarayon fe’llarining sinonimiyasi.

KIRISH

Sinonim – yunoncha synonymus – bir xil nomli. Shakli har xil, ma’nosi esa bir xil yoki biroz farqli bo‘lgan til birliklari qatoridagi har bir til birligi hisoblanadi.

Sinonimlar – bir umumiy ma’noga ega ,qo‘shimcha ma’nosi nozikligi, qo‘llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir.

Sinonim so‘zlarning mavjud ilmiy adabiyotlardagi ishchi ta’rifida bir turkumga mansub bo‘lishi, yozilishi, talaffuzi har xil ammo ma’nosi bir xil yoki yaqin bo‘lgan so‘zlar ekanligi aks etadi. Sinonimlik o‘ta serqirra hodisa bo‘lib, berilgan aksariyat ta’riflar sinonimiyaning mohiyatini har tomonlama qamrab olmaydi. Ma’nodoshlik paradigmasi doim ochiq bo‘lib, jamiyat, davr ta’labi asosida keraksizi iste’mol dan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi, nutqda ma’nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so‘z birikmasi,

nutqiy ko‘chma so‘z bilan to‘lib kengayib boraveradi. Ular nutqning boyligi va go‘zalligini ta‘minlovchi vositalar sanaladi.⁹⁹

Ko‘p ma‘noli so‘zlar bir emas ikki va undan ortiq ma‘nosida o‘zaro sinonimik qator tashkil etishi mumkin. Masalan, aynimoq, buzilmoq so‘zlari “sof holatini, iste‘molga yaroqliligini yo‘qotmoq, iste‘molga yaroqliligi yomonlashmoq” ma‘nosi bilan bir sinonimik qatorga va “xulq- atvori biror vazifasi, ishdagi xatti- harakati yomon(salbiy) tomonga o‘zgarmoq” ma‘nosi bilan ikkinchi sinonimik qatorga birlashadi.

Sinonimik qatoridagi so‘zlar ifodalaydigan tushuncha doirasi o‘zaro farqli bo‘lishi mumkin. Masalan, yordamlashmoq, yordam qilmoq, ko‘maklashmoq, qarashmoq, boqishmoq so‘zlari “yordam ko‘rsatmoq”, “ko‘mak bermoq” ma‘nosi bilan bir sinonimik qatorni hosil qiladi.

Sinonim so‘zlar asarlarga sayqal berishda, fikrni jozibali ifodalashda fikr bildirishda takrorlarga yo‘l qo‘ymaslikda katta ahamiyatga ega. Sinonimlar nutqni ravon va ta‘sirchan qiladi.

Sinonimlar belgi, predmet, shaxs, voqeaning bir necha nomlar bilan aytilishi deyishimiz mumkin. Sinonimlar til boyligi bo‘lib, avvalo, shaxs va predmetlarning eng nozik ma‘no bo‘yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan:

Gulshanda gullarni tebratar sabo,

Adashgan yo‘lchiday daydib yurar yel.

Ikkinchidan, sinonimlar gapda takrorga yo‘l qo‘ymaydi. O‘rinsiz takror nutqqa putur yetkazadi. Sinonimlar badiiy uslub vositasi bo‘lib, adabiy tilni boyitish manbalaridandir. Ona tili imkoniyatlarimizdan va boshqa tillardan so‘z olish yo‘li bilan sinonimik qator kengayaveradi.

Sinonimik qatoridagi so‘zlar hozirgi adabiy tilga yoki dialektlarga xos bo‘lishi mumkin. Masalan, xursandchilik, sevinch, quvonch, shodlik, surur, farah, bexbudlik so‘zlari eskirgan

⁹⁹ Mirxanova.G Sinonim so‘zlar o‘quv lug‘atining umumiy tuzilishi.” Yosh tadqiqotchi jurnali”2-son. 2022.

soʻzlardir. Foyda, naf, manfaat, hayon sinonimik qatorida hayon eskirgan soʻz.¹⁰⁰ Sinonimlar barcha soʻz turkumlarida boʻlishi mumkin. Shu jumladan feʼlda ham.

Feʼlning maʼnoviy guruhi tarkibiga irsiy jarayon feʼllari ham mavjud. Irsiy jarayon feʼllari keng maʼnoda tirik, jonli organizmning hayoti, oʻsishi, rivojlanishi kabilar bilan bogʻlanadi. Bu turdagi feʼllarga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin: keksaymoq, qarimoq, oʻlmoq, suvsamoq, chanqamoq, ochiqmoq, choʻllamoq, ulgʻaymoq va hokazo.¹⁰¹

Maʼnosi bir biriga yaqin boʻlgan bir nechta irsiy jarayon feʼllari sinonimik qatorni hosil qiladi. Masalan: suvsamoq, suvsiramoq, chanqamoq kabi soʻzlar maʼno jihatdan bir biriga yaqin. Ammo har biri oʻziga xos maʼno nozikligiga ega. Bu soʻzlarning aynan maʼnolarini Oʻzbek tilining izohli lugʻatidan koʻrib chiqamiz.

1.Suvsamoq- suvga tashna boʻlmoq, chanqamoq, choʻllamoq. Qizni soʻraganga ber, qimizni- suvsaganga. Suvsiramoq- suvga juda ham tashna boʻlmoq, suvga tashnalikdan qurishmoq, qaqramoq.

2.Chanqamoq- suvga tashna boʻlmoq, suvsamoq. Yigit gʻoyat chanqagan edi. Yuqoridagi soʻzlarga Azim Hojiyevning Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati kitobida quyidagicha taʼrif berilgan. Chanqamoq, suvsamoq, choʻllamoq, tashna boʻlmoq. Suv talab boʻlmoq. Suvsamoq, choʻllamoq ayrim shevalarga xos boʻlib, yozuvda juda kam qoʻllanadi.

Adolat kechalari uxlamay, suvchilar yonida yurdi. U chanqab, qovjirab turgan har bir gʻoʻzaga qarab achinar va tungi suvni shimirib tirilayotgan har bir gʻoʻzani koʻrib quvonardi. (I.Rahim)

1.Soʻlinqiramoq, soʻlmoq, qovjiramoq, qurib bujmaymoq soʻzlari ham oʻzaro sinonim soʻz hisoblanadi va ular sinonimik qatorni hosil qiladi. Bu soʻzlarni ham Oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilgan maʼnolarini koʻrib chiqamiz.

2.Soʻlmoq-oʻsib turgan yoki uzilgan vaqtidagi holatini yoʻqotmoq; shalpaymoq (oʻsimlik haqida). Umid soʻlib, qovjirab qolgan gʻoʻzalar tepasida aylanardi.

¹⁰⁰ A.Hojiyev Oʻzbek tili sinonimlarining izohli ligʻati. Toshkent-1974. 4-bet

¹⁰¹ R.Rasulov Oʻzbek tili nazariy grammatikasi muammolari. Toshkent-2022. 22-bet

3.Qovjiramoq-suvsirab yoki issiqning zo‘ridan, garmseldan so‘limoq, qurib bujmaymoq, quruqshamoq. Qovjiragan barg, qovjiragan o‘t.¹⁰²

O‘lmoq, vafot etmoq, o‘lib bermoq, dunyo bilan vidolashmoq so‘zlari ham sinonimik qatorni hosil qiladi. O‘lmoq- hayoti tugamoq, yashashdan to‘xtamoq, qazo qilmoq. Jonkeldi o‘lib turgan ekan, quloq qoqmay xo‘p dedi. A.Qodiriy “O‘tgan kunlar”. O‘g‘rilar teshib, oldimga chiqqanlarida men nima qilar edim. Oh, otajon! Men ajalimdan besh kun burun o‘lardim. A.Qodiriy “O‘tgan kunlar”. Vafot etmoq- o‘lim, ajal. Solih maxdum otasining vafotida yigirma yoshli talaba edi. A.Qodiriy “Mehrobdan chayon” Bundan tashqari Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida irsiy jarayon fe‘llarini birikma holida ham qo‘llagan. Masalan, dunyon bilan vidolashmoq. Bu ham o‘lmoq ma’nosidagi fe‘l hisoblanadi. Faqat bu yerda so‘z birikmasi holida qo‘llangan. Bunday birikmalar faqat Abdulla Qodiriy asarlarida uchraydi. So‘z qo‘llashda adibning qanchalik mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek mashhur adibimiz Abdulla Qodiriy o‘zining romanlarida irsiy jarayon fe‘llaridan ham mohirona foydalangan. Uning “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida irsiy jarayon fe‘llarining bir necha marotaba qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘klamga chiqar- chiqmas Salim bo‘yoqchining o‘zi ham dunyo bilan vidolashdi. Buning ustiga Anvar, yana ikki og‘asiga qizamiq toshib bir bola mundan ham o‘lib berdi. Natijada yurak falajiga yo‘liqqani ma’lum bo‘lib, shu kun kechasi hatto uch go‘dagi to‘g‘risida bir o‘g‘iz vasiyat qilolmay vafot etdi.

Bu yerda dunyo bilan vidolashdi, o‘lib berdi va vafot etdi so‘zlari o‘zaro sinonim va bu so‘zlar birgalikda sinonimik qatorni hosil qiladi.

XULOSA

Sinonimlardan nurq jarayonida o‘rinli foydalanish so‘zlovchining maqsidini aniq, ravon va ta’sirchan ifodalashida katta ahamiyatga ega. Sinonimlar nutq ta’sirchanligini oshirish bilan birga o‘rinsiz takrorlarning oldini oladi, so‘z boyligini oshiradi. Ular o‘zbek tilining qanchalik so‘zga boy ekanligini ham ko‘rsatib beradi.

¹⁰²E.Begmatov va boshqalar O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent-2019 . 579-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A. Hojiyev . O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent
 2. A. Nurmonov va boshqalar Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent -2013
 3. G. Mirxanova Sinonim so‘zlar o‘quv lug‘atining umumiy tuzilishi Yosh tadqiqotchi jurnali 2- son 2022 yil
 4. A.Qodiriy Mehrobdan chayon Toshkent-2019
 5. A.Qodiriy O‘tkan kunlar Toshkent -2016
 6. N. Rasulova Ona tilidan ma’ruzlar Toshkent-2018
 7. R. Rasulov O‘zbek tili nazariy grammatikasi muammolari. Toshkent-2022
- E. Begmatov va boshqalar O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent -2019